



TALABALAR KREATIVLIK POTENSIALINING YUZAGA CHIQISHIGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10353240>


Ushbu maqolada kreativlik potensialini yuzaga chiqarish bosqichlari hamda kreativlikning yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar haqida fikrlar keltirilgan. Qolaversa, kreativlik potensialini yuzaga chiqarish vazifasi ta'limdagi kreativlikning asosiy strukturaviy komponentlarini aniqlashtirish va ularning namoyon bo'lish sharoitlarini o'rganish bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: diversifikatsiya, kreativlik, bo'lajak mutaxassis, amaliy qo'llanilish, kreativlikka to'siqlar, andazaviylik, ichki ta'qiq, ratsionallashtirish, vaqt omili, tanqid.

OTM talabalarini bevosita bo'lajak mutaxassislar sifatida qarashimiz lozimligi, yangi ta'lim paradigmalari asosida ta'lim amaliyotiga keng joriy etilgan diversifikatsiya tamoyillaridan kelib chiqib hamda yuqorida keltirib o'tilgan mulohazalarni umumlashtirib, biz talabalardagi kreativlik potensialni yuzaga chiqarish vazifasini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash strukturasi muhim komponenti va bu jarayonda bajariladigan eng muhim vazifalardan biridir, degan xulosaga kelamiz. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, talabaning kreativlik potensialini yuzaga chiqarish vazifasi ta'limdagi kreativlikning asosiy strukturaviy komponentlarini aniqlashtirish va ularning namoyon bo'lish sharoitlarini o'rganish vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Talabalarining kreativlik potensialini yuzaga chiqarish to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlar quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan (1-chizma).

1-chizma





ITALY



ITALY

Pedagogikada ta'lim oluvchilarning kreativligini namoyon etuvchi alomatlar bilan bir qatorda kreativlikning yuzaga chiqishiga monelik qiluvchi, bu fenomenning potensial sifatida ta'lim oluvchining ta'limiy sifatlaridan biriga aylanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar ham borki, ularni kreativlikka to'siqlar deb atash mantiqqa to'g'ri bo'ladi. Kreativlikka to'siqlarni yaratuvchi asosiy faktorlar ta'lim oluvchilarning xususiyatlaridan iborat.

V.Vorobyovning fikricha, kreativlikka to'siqlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1. *Shaxsning funksional andazaviyligi.* Ta'lim oluvchining xususiyatlaridan biri hisoblangan bu kreativlikka to'siq istisnosiz har bir shaxsga xos bo'lib, hal etilishi lozim bo'lgan masalaning yechimiga kirishishda yangi usul izlashga, original yondashishga "erinishi"da namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchi o'ziga qiyinchilik tug'dirmaydigan an'anaviy usullar bilan o'z vazifasini "osongina" bajarib qo'yishni afzal biladi.

2. *Ichki ta'qiqning mavjudligi.* O'quv jarayoni ishtirokchilarining yoki kommunikativ aloqaga kirishgan boshqa shaxslarning nazarida "aqli bo'lib ko'rinish"dan tortinish yoki aksincha, taklif etgan fikri samara bermagan taqdirda "uyalib qolish" instiktini rivojlantirish mexanizmining mavjudligi.

3. *Ichki nazoratning faollashuvi.* Ta'lim oluvchi o'quv jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan masalaning yechimiga kirishar ekan, nazarida yangilik joriy etishga monelik qiluvchi detallar ko'p tuyuladi va eng ahamiyatsiz detallarga keragidan ortiq e'tibor berish natijasida irodasizlik va toliqish tuyadi.

4. *Ratsionallashtirish* – hal etilishi lozim bo'lgan masalaning faqat mantiqiy jihatlarini ko'rish orqali, jarayonning sun'iy ravishda murakkablashib yuborilishi.

5. *Yechimning vizuallashtirilishi* – ta'lim oluvchining asosiy e'tiborni o'zi taklif etgan g'oya (yoki innovatsiyaviy fikr)ning mohiyatiga emas, mazkur fikr (g'oya) ta'sirida yuzaga kelgan emotsional muhitga qaratishi, natijada esa, g'oyani oxirigacha yetkaza olmay qolishi.

6. *Vaqt omili.* Muayyan vazifani yangi usul va innovatsiyaviy yondashuvga tayangan holda bajarish, o'z kreativ potensialini sarf etish uchun vaqt yetmay qolishi.

7. *Tanqiddan qo'rqish.* Ta'lim oluvchi ilgari surgan fikrni atrofda g'ilarning ma'qullamasligi hamda keskin tanqidga uchrashidan o'zini tortish.

8. *Kun tartibi omili.* Intellektual va jismoniy mehnat, dam olish va uyqu rejimining buzilishi, noto'g'ri ovqatlanish kabi faktorlar ta'sirida fikrlash jarayonlarining sekinlashuvi [1].





ITALY



ITALY

Talaba kreativlik potensialining yuzaga chiqarish jarayonida kreativlikka salbiy ta'sir etuvchi omillarni, ya'ni kreativlikka to'siqlarni bartaraf etish bosqichi muhim sanaladi. Bu to'siqlarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga talabaning intellektualligi va o'quv faolligi bilan bog'liq to'siqlarni, ya'ni unda umumiy dunyoqarashning rivojlanmaganligi, ijodiy-kreativ faoliyat ob'ekti haqida fundamental bilimlarning yetarli emasligi va umuman bilim, malaka, ko'nikmalar sohasidagi muammolarni kiritish mumkin.


Ikkinchi guruhda jamlanadigan to'siqlar talabaning emotsional-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, ular vaqtdan betartib foydalanish, perfeksionizm, funksional andazaviylik, qat'iyatsizlik, tanqiddan qo'rqish, boshqalarning ko'ziga "aqlli", "g'alatiroq" bo'lib ko'rinishdan o'zini tiyish, bularning natijasida esa unda ichki ta'qiq va ichki nazoratning faollashuvi, ratsionallashtirishga intilish, yechimni vizuallashtirish, intellektual qaramlik kabi ichki-botiniy to'siqlar paydo bo'ladi.

Talabaning kreativlik potensialining yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarning uchinchi guruhi talabalar jamoasida shakllangan ta'lim muhiti bilan bog'liqdir.

Kuzovlev V.P. Morozov A.V. Chernilevskiy D.V. va boshqa tadqiqotchilar kreativ potensialning yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar, ya'ni kreativlikka to'siqlar guruhi o'rtasida o'zaro chambarchas aloqadorlik mavjud va ularning negizi uchinchi guruhga kiruvchi omillardir, degan fikrni ilgari suradilar [2].


Biz bu fikrga qo'shilamiz va uning isbotini amaliy vaziyatlarda, har bir o'qituvchi-pedagog o'z shaxsiy tajribasida albatta ko'rishi mumkin deb hisoblaymiz. Zero, talabalar o'rtasida samarali kommunikativlik, o'quv-bilish faoliyatida hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi munosabatlar asosida qurilgan ta'limiy, ijodiy-kreativ muhit qaror topmas ekan, bunday sharoitda ko'pchilik talabalar tortinchoqlik, jur'atsizlik, qat'iyatsizlik va shu kabi ko'plab psixologik faktorlar ta'siriga tushib qoladilar. Psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan talabalarda "Fikrim noto'g'ri chiqsa, ustimdan kulishlari mumkin" yoki "Boshqalar meni g'alatiroq deb o'ylamasmikan?" mazmunidagi andisha ustuvorlik qiladi. Antikonformistik kayfiyatdagi talabalar ijodiy-kreativlik ustivor bo'lmagan muhitda o'z fikrlarini "ichlarida" saqlashni afzal ko'rishlari kuzatilgan[3].

Talabalar kreativ potentsiali yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagi jadvalda keltirilgan (2-rasm).



2-rasm.

Talabalar kreativ potentsiali yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar



Alohida qayd etish kerakki, talabalar kreativ potentsialini yuzaga chiqarishning barcha bosqichlari davomli, uzviy va o'zaro bir-biriga bog'liq jarayonlardir. Faqat, kreativlik namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning uchinchi guruhiga mansub kreativlikka to'siqlarni bartaraf etish vazifasi ikki yo'nalishda – ijodiy-kommunikativ yondashuv joriy etilib tashkil etilgan dars mashg'ulotlarida hamda emotsional-psixologik omillar ta'sirida bo'lgan talabalar bilan ularning *darsdan tashqari faoliyati davomida rejali, tizimli va maqsadli* individual ishlar majmuasini olib borishi tavsiya etiladi[4]. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, talabalar kreativ potentsiali yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarning birinchi (talabaning intellektual darajasining nisbatan pastligi) guruhiga mansub omillarni bartaraf etish vazifasi – individual yondashuv joriy etish orqali va ikkinchi (talabalar o'rtasida kommunikativ aloqalar, ta'limiy hamkorlikning zarur darajada emasligi) guruhiga mansub omillar ijodiy-kommunikativ yondashuvni faol joriy etish orqali talabalar kreativ



potensialini yuzaga chiqarishning uchinchi va to'rtinchi bosqichlarida tashkil etiladigan o'quv jarayoni bilan uyg'un tarzda olib borilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воробев В.П. Воспитательное воздействие на личность: многоуровневая модел: Уч. пособие. Пенза: ПГАСА, 1998. - 50 с.
2. Морозов А.В. Чернилевский Д.В. Креативная педагогика и психология. М.: Академический проект, 2004.-123 с.
3. Otamurodova S. Q. (2023). Ta'lim tizimini diversifikatsiyalash jarayonlari va uning zarurati. Interpretation and researches, 2(1).
4. Otamurodova Sh. Q. O. (2023). Uzluksiz ta'lim tizimida diversifikatsiya tamoyilini tatbiq qilish muammolari. Innovative Development in Educational Activities, 2(19), 150-154.

